

**IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTABLARDA ESHITISH IDROKINI
RIVOJLANTIRISH ISHLARINING MAZMUNI**

G'oziyev Mashrab Eshmaxammatovich

Pedagogika fakulteti tyutri

Abduvaliyeva Ozoda Abdulla qizi

CHDPU 3- kurs talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada nutqiy eshituvni shakllantirish, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituvni intensiv rivojlanishtirish hamda ovoz kuchaytiruvchi apparatlar yordamida nutqning fonetik tuzilishini eshitib ajratib qabul qilish haqida ma'lumot keltirilgan.

Tayanch so'zlar: nutqiy eshituv, intensiv rivojlanish, ovoz kuchaytiruvchi apparat, individual eshituv apparatlari, daktil nutq, metodlar.

Og'zaki nutqni shakllantirish shartlaridan biri eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarning nutqini eshitib idrok qilish qobiliyatini hamda nutqiy eshituvni rivojlantirish bo'lib hisoblanadi. Bu qobiliyat ta'lim - tarbiya jarayonida markaziy nerv sistemasining yuqori eshituvchanligi, qabul qiluvchanligidan rivojlantiriladi. Ko'pgina eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarda eshituv idroki saqlangan bo'lib, bu ovoz kuchaytiruvchi apparatlar yordamida maxsus mashg'ulotlarda yanada shakllantiriladi. Nutqiy eshituvni shakllantirish ishining vazifasi eshitishda nuqsoni bo'lganlarda eshituvni intensiv rivojlantirishdir, buning zamirida eshituv- ko'ruv yoki og'zaki nutqiy idrok qilish asosi vujudga keladi, nutqiy muloqot malakasi shakllanadi. Shu bilan birga eshitishda nuqsoni bo'lgan bolalarga atrof muhitda yo'nalish olishga o'rgatish uchun nutqiy bo'lmagan tovushlar haqida ham ma'lumotlar berish lozim.

Nutqiy eshituvni rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri nutqiy eshituv muhitini hosil qilish bo'lib, bu ovoz kuchaytiruvchi apparat yordamida eshitishda nuqsoni bo'lganlar tomonidan turli tipdagi nutqlarni doimiy idrok qilib borishni ta'minlaydi (statsionar ovoz kuchaytiruvchi apparatlar, individual eshituv apparatlari). Eshitishda nuqsoni bo'lganlarda nutqiy eshituvni shakllantirish uzoq davom etuvchi mashqlari jarayonida rivojlanib boradi. U ikki bosqichga bo'linadi.

1-bosqichda eshitishda nuqsoni bo'lganlar pedagog yordamida turli xil frazalarni, so'zlarni, solishtirishlar uchun ovoz kuchaytirish apparati bilan nutqiy signalni ajratib qabul qilishga o'rganadilar, maxsus mashqlar o'tiladi. O'quvchilarga eshituv qoldiqlari qanchalik yaxshi saqlanib qolgan bo'lsa, o'zlashtirib olish natijalari shuncha yuqori bo'ladi (250 Gs-500 Gs).

2-bosqichda eshitishda nuqsoni bo'lganlar ovoz kuchaytiruvchi apparat yordamida nutqning fonetik tuzilishini eshitib ajratib qabul qilishga o'rganadilar. Bu

bosqichda soʻzlarni eshitib qabul qilish taʼlimi taʼsirida eshituv va koʻruv orasidagi oʻziga xos bogʻlanishlar oʻsadi.

Eshitishda nuqsoni boʻlganlarda nutqiy eshituvni rivojlantirish ishi jarayonining metodlari va tarkibiga koʻra uch davrga: boshlangʻich davr (tayyorlov - 1- sinf); asosiy davr(2-5- sinflar) va individual apparatlardan faol foydalanish davri (6-7- sinflar)ga boʻlinadi.

Boshlangʻich davrda eshitishda nuqsoni boʻlganlar nutqiy eshituvni rivojlantirish uchun sharoit yaratiladi, eshituv zaxirasi aniqlanadi.

Asosiy davr eshituvni intensiv rivojlantirish bilan xarakterlanib eshitishda nuqsoni boʻlganlar tomonidan nutqni qabul qilish ogʻzaki nutqning shakllanishida rivojlanayotgan eshituv idrokidan faol foydalanishida malakalari taraqqiy etadi. Bu davrda eshituv idrokini uzoq mashq qildirish, ovoz kuchaytirish apparatlaridan foydalanish maʼlum miqdorda eshitish idrokini kompensatsiya qilishga katta ijobiy yordam beradi. Bunda eshitishda nuqsoni boʻlganlarda nutqiy eshituvni rivojlantirishning muvaffaqiyati ogʻzaki nutqni shakllantirish, bolalarning aqliy va nutqiy rivojlanganligi darajasi, soʻzlarni oʻzlashtirish va talaffuz malakasi, tilning grammatik tizimi, eshitishda nuqsoni boʻlganlarning bilish faoliyati rivojlanishi maktabdagi barcha ishlarning qanday tashkil etilganligiga bogʻliq boʻladi.

Eshitishda nuqsoni boʻlganlarning eshituv idroki asosiy mustaqil boʻlib qolishi uchun u hamsuhbatining uncha uncha qaratilgan nutqini tushunibgina qolmay, oʻrtacha ravonlikda gapira olishi, urgʻularni ajratish, soʻzni tovush birikmalarini iloji boricha aniq yoki aniqroq shakllantirish kerak. Maktabda nutqiy eshituv rejimini tashkil qilish oʻqituvchining oʻquvchi nutqini daktil formasidan toʻgʻri foydalanishi muhim ahamiyatga ega. 1- sinf oʻquvchilari 1- yarim yillik davomida daktilda gapirish texnikasini, qoʻllar harakatini, harf tarkibini aniq koʻrsatishi, tezlik, ogʻzaki va daktil gapirish tuzilishi va xususiyatlarini oʻzlashtiradilar. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish va talaffuzi shakllantirish jarayonida zarur malaka va koʻnikmalar bilan birgalikda maxsus lugʻatini oʻzlashtirish talab etiladi.

Eshitish qobiliyatini oʻstirish va talaffuzni shakllantirish ishlari muayyan izchillik va tizimda tashkil etiladi. Eshitish qobiliyatini oʻstirish va talaffuzni shakllantirish jarayonida eshitishda nuqsoni boʻlgan bolalarda "eshitib -gapiraman" qobilidagi shartli refleks aloqasini shakllantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Косякова О. О. Логопсихология : учебное пособие/ Ольга Олеговна Косякова, Ростов - на - Дону : Феникс. 2007, 284 с.
2. Коробейников И. А. Нарушения развития и социальная адаптация. - М.: ПЕРИСЕ, 2002 .

3. Морозова Е. А. Психологические аспекты к новым условиям воспитания детей раннего возраста с психофизическими нарушениями. Дим. канд.психол. наук.- М.:1999.
4. Захаров А. И. Предупреждение отклонений в поведении ребёнка. СПб, 2000.
5. Dehqonova, M. (2023). THE FIRST STAGES OF ENSURING CONTINUITY IN THE ELIMINATION OF SPEECH DEFECTS OF SPEECH-IMPAIRED CHILDREN. *Science and innovation*, 2(B2), 55-58.
6. G'iyosiddinova, D. M. (2023). Specific Characteristics of Logopedic Work with Blind Children. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES AND HISTORY*, 4(1), 101-105.
7. G'iyosiddinova, D. M. (2022). 4+ 2 TA'LIM TIZIMIDAGI O'RNI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 389-393.
8. Feruzakhon, Q., Khusnora, Y., & Dinara, A. (2022, April). Peculiarities of the psyche of deaf and hard of hearing children. In *Next Scientists Conferences* (pp. 24-27).
9. Muborak, D., & Lobar, S. (2022). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA NUTQNING KECH RIVOJLANISHI. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 2(10), 345-349.